



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 42 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili.....	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	

BOLALIK DAVRIDAGI AUTIZMNING TURLI SHAKLLARINI DIFFERENSIAL TASHXISLASH

Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi

Alfraganus Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalik davridagi autizmning turli klinik shakllarini differensial tashxislashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Kanner sindromi, Asperger sindromi, Rett sindromi, protsessual autizm, paraautizm hamda xromosomal, metabolik va organik genezli autizmsimon sindromlarning o'ziga xos klinik belgilari yoritilgan. Shuningdek, autizmni aqliy rivojlanishning sustligi, erta bolalik shizofreniyasi va boshqa rivojlanish buzilishlaridan farqlash mezonlari ko'rsatib berilgan. Differensial tashxisning to'g'ri olib borilishi samarali davolash, reabilitatsiya va korreksion-pedagogik yordamni tashkil etishda muhim omil ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: autizm, bolalik autizmi, differensial tashxis, autizmsimon sindrom, atipik autizm, protsessual autizm, paraautizm, klinik diagnostika, korreksion-pedagogik yondashuv.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the differential diagnosis of various clinical forms of autism in childhood. The specific clinical symptoms of Kanner syndrome, Asperger syndrome, Rett syndrome, procedural autism, paraautism, and autism-like syndromes of chromosomal, metabolic, and organic genesis are highlighted. The criteria for differentiating autism from intellectual disability, early childhood schizophrenia, and other developmental disorders are also presented. The article is based on the premise that accurate differential diagnosis is an important factor in organizing effective treatment, rehabilitation, and correctional-pedagogical support.

Key words: autism, childhood autism, differential diagnosis, autism-like syndrome, atypical autism, procedural autism, paraautism, clinical diagnosis, correctional-pedagogical approach.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты дифференциальной диагностики различных клинических форм аутизма в детском возрасте. Выделены специфические клинические симптомы синдрома Каннера, синдрома Аспергера, синдрома Ретта, процедурного аутизма, парааутизма и аутистических синдромов хромосомного, метаболического и органического генеза. Также указаны критерии дифференциации аутизма от умственной отсталости, шизофрении раннего детского возраста и других нарушений развития. Обосновано, что правильное проведение дифференциальной диагностики является важным фактором организации эффективного лечения, реабилитации, а также коррекционно-педагогической помощи.

Ключевые слова: аутизм, детский аутизм, дифференциальная диагностика, аутистический синдром, атипичный аутизм, процедурный аутизм, парааутизм, клиническая диагностика, коррекционно-педагогический подход.

KIRISH

Autizm spektr buzilishlari (ASB) bolalar nevropsixiatriyasi, klinik psixologiya va maxsus pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda autizm bilan kasallanish holatlarining ortib borishi ushbu buzilishlarni erta aniqlash, ularning klinik xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda aniq differensial tashxislash masalasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. To'g'ri tashxis qo'yish kasallikning kelib chiqish mexanizmini aniqlash, prognozni baholash va har bir bola uchun individual korreksion-pedagogik hamda reabilitatsion yordamni tashkil etishda muhim o'rin tutadi.

Autizmning turli klinik shakllarida, ayniqsa rivojlanishning dastlabki bosqichlarida, umumiy psixopatologik belgilar kuzatiladi. Ular qatoriga ijtimoiy muloqotning buzilishi, verbal va noverbal kommunikatsiyadagi nuqsonlar, autistik xulq-atvor, motor faoliyatidagi o'zgarishlar, qiziqishlar doirasining torayishi hamda stereotip harakatlarning ustunligi kiradi. Mazkur belgilar autizm spektr buzilishlarini aniqlashning asosiy diagnostik mezonlari hisoblanadi va xalqaro klinik tasniflarda ham muhim ko'rsatkich sifatida e'tirof etiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autizm spektr buzilishlari (ASB)ni differensial tashxislash masalasi zamonaviy bolalar psixiatriyasi, klinik psixologiya va maxsus pedagogikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda autizmning klinik shakllarini bir-biridan farqlash, etiologik omillarni aniqlash hamda korreksion-pedagogik yordamni individual rejalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchilar autizmni faqat xulq-atvor buzilishi sifatida emas, balki neyrobiologik rivojlanishning murakkab buzilishi sifatida baholaydilar [1, 34-42-b.; 7, 18-27-b.].

L.R. Mo'minovaning ilmiy ishlarida autizmning kelib chiqish sabablari, asosiy klinik belgilari hamda maxsus pedagogik yondashuvlar tizimli ravishda yoritilgan. Muallif autizmni erta aniqlash va differensial tashxisni samarali korreksion ishlarning asosiy sharti sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, bolaning nutqiy rivojlanishi, ijtimoiy muloqoti va emotsional javob reaksiyalarini kompleks baholash zarurligi ta'kidlangan [1, 48-66-b.].

Psixodiagnostika bo'yicha A.A. Bodalev va V.V. Stolin tadqiqotlarida autizmni tashxislashda kuzatish, suhbat, standartlashtirilgan testlar hamda kompleks diagnostik metodlardan foydalanishning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Mualliflar faqat bitta diagnostik usul asosida xulosa chiqarish noto'g'ri ekanligini, bolaning rivojlanish tarixi va psixologik xususiyatlari ham birgalikda baholanishi lozimligini ta'kidlaydilar [3, 112-128-b.].

L.F. Burlachuk va S.M. Morozov tomonidan yaratilgan psixologik diagnostika lug'at-ma'lumotnomasida autizm spektr buzilishlari diagnostikasida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar, psixometrik mezonlar hamda baholash tamoyillari tizimlashtirilgan. Mualliflar differensial tashxisning ilmiy mezonlarini psixologik diagnostikaning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydilar [4, 56-78-b.; 5, 94-117-b.].

G.V. Burmenskaya va hamkorlari bolalar hamda o'smirlarni psixologik konsultatsiya qilish jarayonida rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini qayd etadilar. Ularning fikricha, autizm tashxisida bolaning yosh davri, rivojlanish dinamikasi va oilaviy muhit omillari differensial baholanishi kerak [6, 88-104-b.].

T.V. Axutina neyrolingvistik tadqiqotlarida nutqning semantik va pragmatik jihatlarini o'rganish orqali autizimli bolalarda kommunikativ buzilishlarning mexanizmlarini izohlaydi. Muallif nutq rivojlanishini baholash differensial tashxisning muhim mezonlaridan biri ekanligini ko'rsatadi [9, 164-189-b.].

O.I. Bogdashina autizm va Asperger sindromidagi kommunikativ xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilib, autizimli shaxslarning dunyoni idrok etishidagi farqlarni batafsil tushuntiradi. Muallifning fikricha, ijtimoiy muloqot va sensor idrokdagi o'ziga xosliklar differensial tashxisning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi [10, 37-69-b.].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar autizm spektr buzilishlarini differensial tashxislashda klinik, psixologik, neyropsixologik va pedagogik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar autizmning turli klinik shakllarini erta aniqlash, individual baholash va shaxsga yo'naltirilgan korreksion-pedagogik yordamni tashkil etish samaradorlikning asosiy omili ekanligini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada bolalik davridagi autizmning turli klinik shakllarini differensial tashxislashga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tavsifiy va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, autizmning Kanner sindromi, Asperger sindromi, Rett sindromi, protsessual autizm hamda autizmsimon holatlarining klinik belgilari o'zaro solishtirilib, ularni aqliy rivojlanishning sustligi, shizofreniya spektri buzilishlari va boshqa rivojlanish nuqsonlaridan farqlovchi diagnostik mezonlar umumlashtirildi. Tadqiqotda zamonaviy ilmiy manbalar hamda maxsus pedagogika, bolalar psixiatriyasi va klinik psixologiya sohasidagi nazariy qarashlar metodologik asos sifatida xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Endogen kelib chiqishga ega bolalik autizmining har qanday turini aqliy zaiflik (intellektual rivojlanish buzilishi) bilan differensial tashxislashda, aqliy zaiflikda intellektual rivojlanishning bir tekis buzilganligi e'tiborni tortadi. Bunday bolalarda intellektual va emotsional pasayish bir-biriga mos keladi, oliy emotsional yetarli rivojlanmaydi, ijtimoiy moslashuv darajasi esa intellektual nuqson darajasiga mos bo'ladi. Ularning xulq-atvori odatda bir xil, rigid (o'zgarmas) bo'lib, unda g'ayrioddiylik yoki paradoksial xususiyatlar kuzatilmaydi.

Erta bolalik shizofreniyasi va infantil psixoz bilan bog'liq protsessual kelib chiqishga ega bolalik autizmi uchun autistik belgilar odatda 1 yoshdan 2,5 yoshgacha bo'lgan davrda shakllanadi. Bunday bolalarda rivojlanishning dissotsiatsiyalangan (notekis) kechikishi, faollikning asta-sekin pasayishi, muloqotdagi buzilishlar, kommunikativ, ekspressiv va impressiv (reseptiv) nutqning yo'qolishi kuzatiladi.

Xurujsimon-progressiv shizofreniya fonida rivojlanadigan protsessual bolalik autizmi odatda 3-6 yosh oralig'ida shakllanadi. Bunday bolalar 3 yoshgacha aqliy jihatdan me'yorda rivojlanadi. Rivojlanishdagi o'zgarishlar xurujsimon-progressiv shizofreniyaning o'z-o'zidan (autoxthon) boshlanuvchi xurujlaridan keyin yuzaga keladi. Ushbu xurujlar affektiv, nevrozsimon, polimorf, katatonik, katatono-gebefrenik yoki katatono-regressiv

tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Keyinchalik shakllanadigan autistik buzilishning tuzilishi kasallik xurujlaridagi psixopatologik buzilishlarning og'irlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bolalik autizmining ushbu turi (XKT-10 bo'yicha atipik autizm) uchun doimo qoldiq (rezidual) ijobiy psixopatologik buzilishlar, orttirilgan affektiv hamda psixopatsimon belgilar xosdir. Ushbu buzilishlar erta bolalik shizofreniyasi xurujlaridan keyin shakllanadigan orttirilgan autistik nuqsonli holatni ifodalaydi va klinik jihatdan klassik bolalik autizmga yaqin hisoblanadi.

Xromosomal, metabolik yoki kelib chiqishi noma'lum bo'lgan buzilishlarda kuzatiladigan autizmsimon sindromlar klassik autizmga xos bo'lgan barcha simptomlarni o'z ichiga olmaydi. Avvalo, ularda asosiy kasallikka xos bo'lgan disgenез belgilari kuzatiladi. Bunday bolalarda hayot faoliyatining turli sohalarida rivojlanishida asinxronlik kuzatilmaydi. Shaxs tuzilishida inertlik (torpidlik) xususiyatlari ustun bo'ladi. Emotsional buzilishlar nisbatan yengil bo'lgani sababli ular onasi va yaqinlariga nisbatan ko'proq emotsional munosabat bildiradilar. Shaxsiy xususiyatlari klassik autizimli bolalarga qaraganda yaxshiroq saqlanadi. Ba'zan disforik kayfiyat buzilishlari ham uchrashi mumkin. Intelktual rivojlanishdagi kechikish odatda bir tekis namoyon bo'ladi. Ko'z bilan kontakt reaksiyasi saqlanib qoladi, garchi u tez charchasa ham. Stereotip faoliyat asosan oddiy tebranish harakatlari va patologik odatiy harakatlar bilan cheklanadi.

Rett sindromida uchraydigan autizmsimon buzilishlar bolaning dastlab normal rivojlanish davridan so'ng, odatda 8-18 oylik yoshda kasallikning I bosqichida shakllanadi. II bosqichga kelib autistik belgilar sezilarli darajada kamayadi. Rett sindromida bolada atrofdagilardan uzoqlashish (otreshennost) kuzatilgan taqdirda ham, ko'z bilan aloqa qilish reaksiyasi, onaga nisbatan mos emotsional javob qaytarish, yoqimli taktil muloqot, tabassum va imo-ishoralarga javob berish qobiliyati uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Rett sindromidagi motor buzilishlar o'ziga xos bo'lib, asosan qo'llar bilan "qo'l yuvish" yoki "qo'lni ishqalash" harakatlarini takrorlash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kasallik rivojlanishi davomida nevrologik simptomlar tobora kuchayib boradi: spinal mushak atrofiyasi, ataksiya, kifoz, skolioz, nutqning parchalanishi, epileptik tutqanoqlar, yutish va nafas olish buzilishlari rivojlanadi. Ushbu belgilar autizmsimon sindromlar bilan kechadigan boshqa kasalliklarda odatda kuzatilmaydi.

Asperger sindromidagi autistik holatlar (konstitutsional kelib chiqishga ega) autistik belgilarining nisbatan yengil ifodalanganligi va yuqori intellektual rivojlanish imkoniyatining saqlanib qolishi bilan tavsiflanadi. Bola ontogenezinining keyingi bosqichlarida mantiqiy (ratsional) ijtimoiy aloqalar shakllanadi hamda shizoid shaxs tipiga yaqin o'ziga xos shaxs xususiyatlari rivojlanadi. XKT-10 ga ko'ra, Asperger sindromi va shizoid psixopatiya aynan bir xil holat deb hisoblanmaydi, chunki Asperger sindromida shaxs rivojlanishining buzilishi yanada chuqurroq namoyon bo'ladi.

Paraautistik holatlar (ekzogen kelib chiqishga ega) uchun autistik uzoqlashishning chuqur bo'lmasligi xosdir. Bunday bolalarda taktil muloqot qilish qobiliyati saqlanib qoladi. Intelktual va nutq rivojlanishidagi kechikish odatda bir tekis kechadi va chegaraviy darajada bo'ladi, emotsional yetilmaganlik esa yaqqol namoyon bo'ladi. Ikkinchi yosh inqirozi davriga kelib autistik belgilar odatda sezilarli darajada kamayadi. Keyinchalik emotsional jihatdan kambag'allashgan, ba'zan chegaraviy darajadagi intellektual rivojlanish kechikishiga ega, shaxsning oliy ijtimoiy tuzilmalari yetarlicha rivojlanmagan, barqaror hissiy bog'lanishlarni shakllantira olmaydigan, irodaviy faolligi sust va boqimandalikka moyil (rent yo'nalishidagi) shaxs shakllanadi.

Autistik sindrom markaziy nerv tizimining organik shikastlanishi bilan birga kechadigan (komorbid) holatlarda klassik autizmga xos barcha belgilar kuzatilmaydi. Bola rivojlanishining turli sohalarida asinxron rivojlanish hamisha ham uchramaydi. Shaxs tuzilishida inertlik (torpidlik) ustun bo'ladi, aqliy rivojlanishdagi kechikish esa ko'proq umumiy xarakterga ega bo'ladi. Disforik kayfiyat buzilishlari va markaziy nerv tizimining organik shikastlanganligini tasdiqlovchi nevrologik simptomlar kuzatilishi mumkin. Autizmsimon belgilar to'liq emas, uzilib-uzilib namoyon bo'ladi, o'zgaruvchan bo'lib, ayrim davrlarda nisbatan moslashgan xulq-atvor bilan almashinadi. Paradoksal negativizm kuzatilmaydi, shuningdek, ijobiy (produktiv) psixopatologik simptomlar ham bo'lmaydi. Ayrim hollarda autizmsimon sindrom belgilari markaziy nerv tizimining rezidual-organik shikastlanishi bilan yaqqol birgalikda namoyon bo'ladi.

Bola hayotining dastlabki 12-18 oyi davomida markaziy asab tizimining yetilmaganligi autistik sindromning to'liq shakllanmasligiga olib keladi. Shu sababli autizmning kichik turlarini ishonchli aniqlash qiyinlashadi. Chunki infantil autizm atamasi bir yoshgacha bo'lgan davrda kuzatiladigan autizumni anglatadi. Agar 12-18 oylikkacha bo'lgan bolalarda autistik belgilar hali to'liq namoyon bo'lmagan, ya'ni noaniq va sust ifodalangan bo'lsa, bunday holatni infantil autizm sifatida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Keyingi davrda, ya'ni 18-36 oy oralig'ida autistik sindrom to'liqroq shakllanib, boshqa ijobiy psixopatologik simptomlar kuzatilmasa, bunday holatni Kanner sindromi sifatida tashxislash ko'proq asosli hisoblanadi.

Autizm markaziy asab tizimining organik shikastlanishi bilan birgalikda kechgan hollarda esa autizmga va boshqa patologik holatga xos barcha klinik belgilar to'liq shakllanmaguncha, ushbu buzilishlar majmuasini autizmsimon buzilish (autizmsimon sindrom), ya'ni ICD-10 bo'yicha atipik autizm sifatida baholash tavsiya etiladi.



Autistik sindrom erta bolalik shizofreniyasiga xos ijobiy psixopatologik buzilishlar, ya'ni infantil psixoz bilan birga kechganda, mahalliy bolalar psixiatriyasi amaliyotida bunday holatlar odatda erta bolalik shizofreniyasi yoki protsessual genezli bolalar autizmi doirasida baholanadi. Ikkinchi holatda tashxis qo'yishda deontologik yondashuvlarga amal qilinadi. Shu nuqtayi nazardan mualliflar 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda erta bolalik shizofreniyasi spektriga kiruvchi psixozlarni ICD-10 ga muvofiq infantil psixoz, 3-5 yosh oralig'idagi bolalarda esa atipik psixoz deb belgilashni maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar. Shu bilan birga, bu vaqtinchalik tashxis ekanligini unutmashlik lozim. Ushbu bemorlarni davolash va rehabilitatsiya qilishda mahalliy bolalar psixiatriyasida erta bolalik shizofreniyasi bilan og'rigan bolalar uchun qo'llaniladigan davolash va korreksion yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Autizm bilan kechuvchi dizontogeneznining turli shakllarini - Kanner sindromi, protsessual genezli bolalar autizmi, konstitutsional autizm, parautizm, shuningdek, xromosoma va moddalar almashinuvi (metabolik) buzilishlari fonida kuzatiladigan autizmsimon sindromlarni alohida ajratish ularning kelib chiqish mexanizmlarining xilma-xilligiga asoslanadi. Bunday yondashuv bolalik davridagi autizm haqidagi klinik tasavvurlarni yanada kengaytiradi va bu mahalliy tasnif hamda ICD-10 da o'z aksini topgan. Mualliflarning fikricha, bunday yondashuvni sindromologik tasnifga ortga qaytish, bolalar psixiatriyasidagi klinik-nozologik konsepsiyalardan voz kechish yoki L. Kannerning erta bolalik autizmi haqidagi konsepsiyasini inkor etish deb baholab bo'lmaydi. Aksincha, bu autizmning turli shakllari, jumladan, klassik endogen autizm, konstitutsional autizm, protsessual autizm hamda xromosoma, metabolik va ekzogen kelib chiqishga ega autizmsimon holatlar haqidagi yangi klinik ma'lumotlar va ilmiy bilimlarning kengayishi natijasidir.

Shunga qaramay, endogen autizm bilan xromosoma yoki moddalar almashinuvi buzilishlari natijasida rivojlangan autizmsimon sindromlarni differensial tashxislashda hali ham yechimini topmagan masalalar mavjud. Kelgusida tadqiqot metodologiyasi yanada takomillashishi, kasalliklarning klinik belgilari aniqroq tavsiflanishi va ushbu buzilishlarning etiologiyasi to'liq oydinlashishi natijasida endogen autizm hamda boshqa genezga mansub autizmsimon sindromlar o'rtasida yanada aniq va ishonchli differensial diagnostika o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalik davridagi autizm turli etiologik omillar va klinik ko'rinishlarga ega bo'lib, ularni o'z vaqtida va aniq differensial tashxislash muhim ahamiyat kasb etadi. Autizmning klassik va autizmsimon shakllarini bir-biridan ajratish kasallikning kelib chiqish mexanizmini aniqlash, prognozni baholash hamda individual davolash va korreksion-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, autizmi aqliy rivojlanishning sustligi, shizofreniya spektri buzilishlari hamda xromosomal va metabolik kasalliklardan farqlash tashxis aniqligini oshiradi. Kelgusida klinik, genetik va neyrobiologik tadqiqotlarning rivojlanishi autizmning turli shakllarini yanada aniq tasniflash va samarali diagnostika usullarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мўминова Л.Р. Аутизм сабаблари, турлари ва бартараф этиш методикалари. - Тошкент, 2015. - 152 б.
2. Актуальные проблемы нейropsychологии детского возраста : учебное пособие / под ред. Л.С. Цветковой. - Москва : НПО "МОДЭК", 2001. - 320 с.
3. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. - Москва : Речь, 2000. - 440 с.
4. Бурлачук Л.Ф., Морозов С.М. Словарь-справочник по психологической диагностике. - Санкт-Петербург : Питер, 2004. - 528 с.
5. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика. - Санкт-Петербург : Питер, 2002. - 352 с.
6. Возрастно-психологический подход в консультировании детей и подростков / под ред. Г.В. Бурменской, Е.И. Захаровой. - Москва : Академия, 2002. - 416 с.
7. Адаптация образовательной программы обучающегося с расстройствами аутистического спектра : методическое пособие. - Москва : ФРЦ МГППУ, 2016. - 177 с.
8. Мўминова Л.Р. Аутизм сабаблари, турлари ва бартараф этиш методикалари. - Тошкент, 2015. - 152 б.
9. Ахутина Т.В. Нейролингвистический анализ лексики, семантики, прагматики. - Москва : Издательский дом ЯСК : Языки славянской культуры, 2014. - 424 с.
10. Богдашина О.И. Вопросы коммуникации при аутизме и синдроме Аспергера. Говорим ли мы на одном языке. - Москва : Наш Солнечный Мир, 2016. - 304 с.
11. Бородин Л.Г., Семаго М.М., Семаго Н.Я. Типология отклоняющегося развития. Варианты аутистических расстройств. - Москва : Генезис, 2020. - 208 с.
12. Бурлак С.А. Происхождение языка. Факты, исследования, гипотезы. - Москва : Альпина нон-фикшн, 2019. - 608 с.
13. Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи. - Санкт-Петербург, 2007. - 472 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.